



PEDAGOG 2016

№ 5

MINBARI

THE TRIBUNE OF A TEACHER
ТРИБУНА ПЕДАГОГА

2015-yildan
chiqa boshlagan

ILMIY-PEDAGOGIK, METODIK, MA'NAVIY-MA'RIFIY JURNAL



«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2016»

HAR BOLANI MO'JIZA BILING

Loyihamizning navbatdagi mehmoni – Toshkent viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti «Pedagogika, psixologiya va menejment» kafedrasida katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi Damegul ARAPBAYEVA bo'ldi.

Muallima o'quvchilar bilan ishlashda nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi, tarbiyasi og'ir o'quvchilarni darsga jalb qilish sirlari, qobiliyatni yuzaga chiqarish san'ati haqidagi tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

– Psixologiya va pedagogikada shunday hikmat bor: «Qobiliyatsiz bola yo'q, faqat uni yuzaga chiqara olmaydigan no'noq o'qituvchilar bor», – deydi **Damegul ARAPBAYEVA**. – Keling, avvalo, mana bu tushunchalarga oydinlik kiritib olsak: layoqat, qobiliyat, iste'dod...

Layoqat ikki xil: tabiiy va ijtimoiy. Birinchisi tug'ma. Ya'ni bunda oliy asab tizimi, miya yarimsharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari (*ko'z, quloq, burun, teri kabi*)ning xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Bularning bari ota-onadan genetik tarzda o'tadi, suyak suraveradi. Ijtimoiy layoqat esa bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitdan (*ularning hosil bo'lishi ota-ona, ustozlar, jamiyat, davlat zimmasida*) yuzaga keladi.

Layoqat xususiyatlari va muhitini bola tayyor holda qabul qiladi.

Iqtidor va iste'dodning farqi bormi?

– Gaplaringiz O'zbekiston xalq shoiri Asqad Muxtorning bir fikrini yodga soldi: «Tug'ilgan go'dakni mo'jiza biling, qutqarishi mumkin dunyoni!»

Ha, aynan shunday. Chunki har bir inson dunyoga kelar ekan, qaysidir ma'noda, teng imkoniyatga ega bo'ladi. E'tiroz bildirishingiz mumkin: aytaylik, olis Afrikaning suv-non tanqis joyida tug'ilgan go'dak bilan Yevropada boy oilada dunyoga kelgan bola teng imkoniyatga ega emas-ku, deb. Biroq unutmang, inson qanchalik og'ir muhitda katta bo'lsa, chidamliligi, yashash uchun kurashuvchanligi shunchalik kuchli bo'ladi. Balki shuning uchun ham bugun Yevropada katta biznes maydoni – sportda katta muvaffaqiyatga erishayotganlar afrikalik va Lotin Amerikasida dunyoga kelgan bolalardir.

– Qobiliyat va iste'dodning farqi nimada? Qobiliyatsiz bola iste'dodsiz bo'lishi mumkinmi?

– Mumkin. Qaysi ma'nodaki, qobiliyat vaqtida shakllanmay, yuksalmay, o'smay, yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Bunda o'sha odam haqida «O'rtacha qobiliyati bor, biroq favqulodda iste'dodli emas», deyiladi.

Qobiliyat – kishining biror faoliyatga yaroqliligi, shu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodirligi bilan bog'liq individual-psixologik xususiyat. Qobiliyat **umumiy** va **maxsus** bo'ladi. Har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bor. Shaxsning **umumiy qobiliyati**

odamga bir qancha sohada ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. **Maxsus qobiliyat** esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish imkonini beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehnni vaqtda payqab, o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, undan qoniqsa, qobiliyati o'sadi va yutuqlarga erishadi. Albatta, buning uchun yetarlicha sharoit va muhit kerak.

– Iqtidor va iste'dodning nima farqi bor? Ko'pchilik bularni ayni bir ma'noda tushunadi, ba'zilar esa farqli deydi, biroq farqini tushuntirib bera olmaydi.

Iqtidor – insonning o'z xatti-harakati, bilimi, imkoniyati, malakasiga nisbatan subyektiv munosabati. Tushunchaning o'zagidan ham anglashilib, biror ishga qodir bo'lishdir. Iste'dod esa har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va nodir qobiliyat. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida har qanday qiyinchilikni yengish, irodasi va imkoniyatini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi. Ya'ni layoqat qobiliyatga, qobiliyat iqtidorga aylanishi va yakunda iste'dod sifatida yuzaga chiqishi uchun, avvalo, o'sha layoqat egasi irodasi, orzulari sari ishonch va chidam bilan muntazam intilishi zarur. Niyati, so'zi, amali pok, insonlarga naf yetkazishni xohlagan kishining tadbiri taqdiriga mos kelaveradi.

– Yuqorida aytdingiz: qobiliyatning shakllanishi, iste'dodning yuzaga chiqishi ko'p jihatdan pedagoglarga bog'liq. Xo'sh, o'quvchi layoqatini tarbiyalash uchun pedagogik qobiliyat qanday bo'lishi lozim?

– Xalqimizda shunday naql bor: «Piligi yo'q chiroq yonmas». Pilik ham o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Bu, shubhasiz, pedagogik qobiliyat bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogik qobiliyat – kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligi va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Sohamizda muvaffaqiyatli ishlash uchun quyidagi fazilatlar ega bo'lishimiz kerak:

1. Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish.

O'quvchilaringizga o'z farzandingizday munosabatda bo'lmasangiz, ular ham sizni o'z ota-onasiday ko'rmaydi. O'quvchilaringizning sizdan tortinmay, yaqin olib maslahat so'rashiga erishing.

2. Kasbini sevish.

Bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun ishingizga ko'ngil bering, shundan zavq va ma'no toping.

3. Ruhiiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik.

Hamisha sinfni, o'quvchilarni kuzating. Ziyrak bo'ling, ortiqcha muammolarga duch kelmaysiz.

4. Pedagogik nazokat.

So'zlarni tinglovchiga har kim har xil tushuntiradi. Pedagogik nazokat esa har bir tushunchaning tub mohiyatiga yetib, uni o'quvchilarga yetkaza olishda.

5. Pedagogik tasavvur.

Tasavvur – ixtirolar doyasi. Hayotda ham har bir narsani, avvalo, pedagogik tasavvur qilishga odatlaning.

6. Tashkilotchilik.

Bu, birinchidan, o'quvchilar jamoasini jipslashtira olish. Qolaversa, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila bilish qobiliyatidir.

7. Haqo'ylik.

Muallim hamisha odil qaror chiqara olishi kerak. Bu, avvalo, rostgo'ylik asosiga quriladi.

8. Dilkashlik.

Hech qachon o'quvchilarning ishonchiga putur yetkazmang! Chin dildan so'zlashing, mehr bering – mehr topasiz.

9. Talabchanlik.

Avvalo, o'zingizga talabchan bo'ling, o'quvchi ibratni sizdan oladi.

10. Qat'iyat.

Kecha aytgan so'zingizdan bugun qaytsangiz, o'quvchilar sizga ishonmay qo'yadi. Kulgiga qolasiz. O'quvchilar irodasini toblashda o'zingiz o'rnak bo'ling.

11. Vazminlik, o'zini tuta bilish.

Deylik, biror qitmirroq bola asabingizni buzadigan savol berdi. Yoki kimdir uy ishini bajarmay keldi. Demak, bu o'rinda urish-so'kish bilan ish bitmaydi, obro' ham topib bo'lmaydi. Chunki bular sobiq tuzum davridayoq o'zini oqlamagan «metod»lar. Ana shunday vaziyatda o'qituvchiga kuchli psixolog bo'lish qo'l keladi.

12. Kitobxonlik.

Mutolaa fikrni charxlaydi. Fikrlash qobiliyati o'tkir o'qituvchigina yuksak tafakkur sohiblarini tarbiyalashga qodir.

13. Ma'naviy yuksaklik.

O'quvchilar ruhan poklanish, qalban ulg'ayish, iymon-e'tiqodni, vijdonini uyg'otishni, avvalo, muallimidan o'rganishi lozim.

14. Intellektual salohiyat.

O'qituvchining zakovati ham o'quvchilarni bilim olishga havasini oshiradi, qiziqtiradi.

15. Yangilikni his qila olish.

Hamisha yangilikka intiling, innovatsiya faoliyatingiz mazmuni va asosiga aylansin.

16. O'z ma'lumotini oshirishga intilish.

Nainki malaka oshirish kurslarida, balki mustaqil ravishda ham izchil bilimingizni boyitib boring.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatlari tarkibida bir nechta qobiliyat mujassam. Bunda **didaktik qobiliyat** oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tushuntirishni o'z ichiga oladi. **Akademik qobiliyat** barcha fan yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishni anglatadi. **Perseptiv qobiliyat** esa qisqa daqiqalarda auditoriya holatini idrok qila olish fazilatidir. Ya'ni o'quvchi shaxsini ruhiy holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat.

Nutq qobiliyati – kishining o'z his-tuyg'ularini nutq, mimika va pantomimika yordamida aniq ravshan ifodalab berishi. **Avtoritar qobiliyat** esa o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburonligi, o'zini tuta bilishi, farosati, talabchanligi kabi irodaviy xislatlarni, qator shaxsiy fazilatlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning tarbiyasida javobgarlikni his etish uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy-ma'rifiy e'tiqodni singdira olishga ishonch kabi xislatlarni o'zida mujassam etgan.

O'qituvchida **muomala va muloqot o'rnata olish qobiliyati** ham yaxshi shakllangan bo'lishi lozim. Bu bolalar ko'ngliga yo'l topa bilish demakdir. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali munosabatlar o'rnata bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Psixologik tashxis qobiliyati – inson kelajagini oqilona taxmin va tasavvur qilish bo'lsa, **diqqatni taqsimlash qobiliyati** bir necha obyektga bir davrning o'zida munosabat bildirish uquvidir. Darvoqe, muallimda **gnostik qobiliyat** ya'ni, ilmiy tadqiqotga layoqat ham yaxshi shakllangan bo'lishi lozim.

– **O'quvchi nega «tarbiyasi og'ir» bo'lib qoladi? Ba'zi o'quvchilarga nisbatan «tarbiyasi og'ir» sifati qo'llanadi. Ular bilan ishlashda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerak?**

– Tarbiyasi og'ir bolalar deganda ko'p holatlarda voyaga etmaganlar bilan ishlash nazoratchilar ro'yxatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimliklar, bezorilik va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi. Tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshilik ko'rsatadi, o'zini qo'rs tutadi.

Muammoli bolalar kelib chiqishining **asosiy sabablaridan biri** ularda o'qishga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishidir. Odatda, bunday munosabatning paydo bo'lishiga quyidagi sabablar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

a) o'quv faoliyati usuli, malakasi to'la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish;

b) o'zlashtirish qobiliyatining sust rivojlangani, muayyan vaziyatlarda hukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelish;

d) o'qituvchilar tomonidan o'quvchiga obyektiv baho berilmasligi.

Natijada bola uchun kelajak rejalarining poymol bo'lish xavfi tug'ilib, o'qishdan va jamoadan yuz o'g'irib, o'z kelajak, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatiga bog'lashdan ko'ra yangi «do'stlari» bilan aloqa o'rnatishni afzal ko'radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Natijada o'smir **nosog'lom xulqli bolalar** to'dasiga tushib qoladi va xulq-atvori kun sayin ularga moslashib boradi.

Oilaviy sharoitning salbiy ta'sirida ham tarbiyasi og'ir o'smirlar paydo bo'ladi. U oilasidagi noxush holat bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. O'smir dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan norozilik hissi kundan kun avj olib, alamzadalikka, ichki qo'zg'alonga aylanib boradi.

Pedagogik qarovsizlik nima? Ba'zan ota-ona o'rtasidagi munosabatlarning nosog'lomligi, ayrim ota-onaning spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi ham bolaning ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir ko'rsatadi...

– To'g'ri, ko'pincha bola tarbiyasidagi muammolar oiladagi va ta'lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi. **Pedagogik qarovsizlik** quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

Past (xatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik). O'z «men»iga ortiqcha baho berish. Asosan, yoshiga xos bo'lgan xarakter belgilarining ustunlik qilishi.

O'smirlilik davridagi yosh krizisi. Bu faqat o'smirlarning o'zlarigagina qiyin bo'lmay, balki ularning atrofidagi odamlarga – ota-ona, o'qituvchi, tarbiyachilarga ham bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. O'smirlarning muammolari, qiyin holatlardan chiqish yo'llarini izlab yordam so'rash ko'pincha, tengdoshlar guruhi, ota-ona, o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Krizis jarayonidan psixolog-konsultantning adekvat yo'naltirilgan psixologik yordami tufayli qutilish mumkin. Shunga muvofiq quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

– «psixologik sog'liq» tushunchasini mazmunli, to'liq tushuntirish, uning buzilishiga olib keladigan xavfli holatlarni ta'riflash, optimal psixologik-pedagogik muhitini shakllantirish;

– psixologik sog'lomlik darajasini aniqlash.

– bolalar va o'smirlarga ruhiy ko'mak berishning o'ziga xos xususiyatlarini qarab chiqish, aniq psixologik texnologiyalar ishlab chiqish;

– yoshga bog'liq keskin o'zgarishlarni boshdan kechirish vaziyatidagi kattalar holatini o'rganish, o'smirlarga yuqoridagi ruhiy holatdan xulosa chiqargan holda yordam berish;

– o'smirlarga hayotda murakkab vaziyatlarda yordam ko'rsatish.

Shartli ravishda krizislarning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1. Krizis muammosining rivojlanishi.
2. Muammoning yetilishi.
3. Krizis.

Krizis muammosi rivojlanishining ikki turi tavsiflanadi:

a) mohiyati jihatidan ikkinchi darajali hisoblangan, hal etilmagan muammolarning to'planishi. Eng oxirgi muammo o'smir sabr-kosasini to'ldirib, krizis nuqtasiga olib kelishi mumkin.

b) o'smir «qochishi mumkin» bo'lmagan muhim bir voqeani kutadi. Shu voqea sodir bo'lishi yaqinlashgan sari krizis yuzaga keladi. Masalan, muhim imtihon, kasallik, uydan ketish va hokazo. O'smir krizis rivojlanish bosqichida muammoning chuqurlashayotgani haqida tez-tez va ixtiyorsiz ravishda o'ylaydi. Natijada yurak urishi tezlashadi, uyqusi buziladi, to'siqlar yuzaga kelaveradi.

Muammoning yetilishi. Muammoning murakkabligi sababli qo'rquv shunchalik oshadiki, natijada o'sha muammo yetilib, insonning unga qarshi kurashuvchi psixologik resurslari, vositalari tugaydi.

Hal qiluvchi vaziyatlar: imtihon, o'lim, ajralish, uydan qochish, ishni yo'qotish va shu kabilar insonga

undan juda katta psixologik quvvat talab qiluvchi qattiq bosim bilan ta'sir etadi.

Krizis (voqea-hodisadan so'ng)da insonga voqea-hodisa chidab bo'lmaydigan darajada ta'sir etadi. Shuning uchun u o'zini tarang tutadi, bor kuchini vaziyatni o'zgartirishga yo'naltiradi.

Shunga ko'ra negativ va pozitiv xatti-harakatlar konsultant psixolog va patsiyent o'rtasida o'zaro muhokama qilinadi, eng amaliy jihatdan mos varianti tanlanadi. Krizisli yordamning nihoyasida inson muammoni o'zi mustaqil hal etganini his qilishi muhim shartlardandir.

– **Bu muammolarning yechimi qanday? Ota-ona va pedagoglar nimalarga e'tibor berishi lozim?**

– Bunda ota-ona va pedagoglarga mutaxassislar tavsiya etgan tayyor «retsept»lardan xoli tarzda muammoni hal etish yo'li, usul va vositalarini tanlash sharoiti mavjud. Demak, krizisli yordam strategiyasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Krizisli voqea-hodisaning subyektiv nazariyasini qurish, bo'lib o'tganlarni tushunish, anglash.

2. O'z hayoti ustidan nazoratni tiklash.

3. Obyektiv o'z-o'zini baholashni tiklash.

Tarbiyasi qiyin, giyohvandlik va jinoyatchilikka moyil bolalar bilan ishlashda intervyu metodidan foydalanish mumkin. Bunda **sinf rahbari bilan suhbat** quyidagi masalalarda o'tkaziladi:

1. Tarbiyasi og'ir bo'lishning sabablari?

2. Uydagi va maktabdagi intizom.

3. O'zlashtirishi.

4. Tarbiyaning asosiy qiyin tomonlari va ko'rilgan choralari.

5. Oilaviy sharoiti.

Tarbiyasi og'ir o'quvchi bilan suhbatda esa quyidagi savollar beriladi:

1. Maktabni tugallagach, qaysi kasbni egallamoqchisan?

2. Qaysi fanlar senga ko'proq yoqadi?

3. Qanday kitoblar o'qishga qiziqasan?

4. Do'stlaring kimlar va ular haqida qanday fikrdasan?

5. O'z xulqing va o'qishingdan qoniqasanmi?

6. Jamoat ishlariga qatnashasanmi?

7. Sen yoqtirgan mashg'ulot (*uyda va maktabda*)?

8. Hayotda eng zarur va qiziqarli narsa nima deb hisoblaysan?

9. Ota-onangga munosabating qanday va nima uchun?

10. Kattalarga munosabating?

Fan o'qituvchilari bilan suhbat quyidagi savollar asosiga quriladi:

1. Sizning darsingizda o'quvchining xulqi va o'zlashtirishi qanday?

2. O'quvchi tartibsizligining eng yomon tomoni va sizning maslahatingiz?

3. Uning o'qish va ishdagi qobiliyati, imkoniyati qanday?

Do'stlari bilan suhbatda ularga quyidagi savollar beriladi:

1. Qachondan beri do'stsizlar?

2. Sizlar yoqtirgan mashg'ulot va ishlar?

3. Do'stingning nimasi senga yoqadi?

4. Do'stingning qaysi jihati yoqmaydi va nima uchun?
5. Unga qanday yordam qilasisiz?
6. Sizlarning kelajak rejalaringsiz?

Ota-onalari bilan suhbatda quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Farzandingizning o'qishi va xulqidan qoniqasizmi?
2. Uning o'qishi va xulqidagi qaysi tomonlar sizni bezovta qiladi?
3. Siz unga yordam berasizmi?
4. Uning kun tartibi qanday?
5. Uyda nimalar bilan shug'ullanadi?
6. Uy ishlarida sizga yordamlashadimi?
7. Kelajakda qanday kasb tanlashini maslahat berasiz?

Sinf sardori bilan suhbatda unga quyidagi savollarni beradi:

1. Sinfdoshing haqida qanday fikrdasan?
2. Uning xulqida qanday nuqsonlar bor?
3. Sinfdoshlarga munosabati qanday?
4. Jamoat ishlariga qatnashadimi?
5. Sinfdoshlari tomonidan uning namunali o'quvchi bo'lishiga qanday yordam ko'rsatildi?

Oxirida xulosa qilinadi. Tarbiyasi qiyin o'quvchiga tavsifnoma yoziladi. Uni tarbiyalash yuzasidan oila, maktab va sinfdoshlarining imkoniyati va bahosi o'rganiladi. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan yakka va guruhli tartibda ishlash uchun reja va dastur tuziladi.

Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olish uchun qanday tavsiyalar berasiz?

– Shaxsida ruhiy beqarorlik, o'zgaruvchanlik, afektga moyillik kabi xususiyatlarning yaqqol ifodalanganidan kelib chiqib, ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash natija beradi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishining kelib chiqishi asosiy sabablari ular faoliyatini nazorat qilmaslik, oilada bola tarbiyasiga e'tiborning susayishidir. Oilada va oiladan tashqarida bolalar va o'smirlar faoliyatini, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanayotganini nazorat qilish va e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Moddiy-maishiy sharoitning yetarli emasligi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir etishini hisobga olib, bunday oilalarga mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta'minot va xayriya jamg'armalari tomonidan moddiy yordamlar berib turishni tashkil etish kerak.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi ko'pincha ota-ona, o'qituvchining bolalar va o'smirlar psixologiyasini bilmasdan turib munosabatda bo'lish natijasida kelib chiqadi, ota-ona va o'qituvchilarning psixologik bilimlarini oshirish tadbirlarini belgilash lozim.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining oldini olishda bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Individual-psixologik xususiyatlarni o'rganishda turli diagnostik usullardan foydalanish mumkin.

«Kaktus» metodi. Kerakli materiallar: rangli qalamlar, A4 formatdagi qog'oz. O'quvchiga kaktus ras-

mini chizish vaqtida savol va tushuntirishlar berilmaydi. Rasm chizib bo'lgandan keyin quyidagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi:

1. Kaktus xonakimi yoki yovvoyimi?
2. Uni ushlab mumkinmi?
3. Kaktusni parvarish qilish unga yoqadimi?
4. Kaktusga yaqin qanday gullar bor?
5. Kaktus o'sganda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Natijalar tahlili: psixolog chizilgan rasmlarga qarab o'quvchida emotsional holatlarni aniqlaydi.

Jahldorlik kuchli – kaktusda tikanlar soni ko'p chizilsa, tikanlari uzun va yaqin joylashgan bo'lsa.

Impulsivlik – birinchi tashqi turtki yoki his-tuyg'ular ta'siridayoq o'ylab o'tirmay ma'lum so'zlarni aytib yuborishga, harakatlarni bajarishga moyillik ifodalangan xarakter xislati – rasmni bosib chizish, alohida ajratilgan chiziqlar.

Egotsentrizm – o'z shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga kuchli hirs qo'yish – rasm katta va varaqning o'rtasida joylashgan bo'lsa.

Tobelik, ishonchsizlik – rasm kichkina va varaq pastida bo'lsa.

Ochiqlik va namoyishkoronalik – noaniq shakl, kurtaklar chizilgan bo'lsa.

Ehtiyotkorlik va yashirinlik – kaktus chetlarida zigzag chizilgan bo'lsa.

Optimizm – kelajakka ishonch bilan to'lib-toshgan ijobiy xarakter xislati yoki emotsional holat – yorqin ranglardan foydalansa.

Xavotirlanish – to'q ranglardan foydalanib, shtrixlar berilsa.

Nozik did egasi – kaktusning gullagani. Chiroyli shakl va bezak berilsa.

Ekstravert – agarda rasmda boshqa kaktuslar va gullar chizilgan bo'lsa, tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalish bor.

Oilaviy himoyaga intilish – gultuvak chiroyli bezalgan bo'lsa.

Yolg'izlikka intilish – yovvoyi holda o'sadigan kaktus chizilsa.

O'quvchilardagi emotsional holat va agressivlikni aniqlash uchun «Kaktus» usuli proyektiv hamda emotsiya va xulq-atvor sohasidagi buzilishlarni o'rganish uchun «Ijtimoiy-psixologik moslashuv» shkalasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Zotan, pedagoglarning ham, ota-onalarning ham maqsadi yagona – barkamol avlodni, har tomonlama sog'lom shaxsni voyaga yetkazish, bu esa jamiyat a'zolarining har biri zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Xo'sh, aziz o'qituvchi, sizningcha, pedagog yana nimalarga e'tibor bersa, darsning sifati, samaradorligi oshib, o'quvchilarning bilim saviyasini ko'tarish mumkin? Bu borada qanday kuzatishlaringiz, fikrlaringiz bor. Shular haqida bizga yozing. Unutmang: har bir fikr, albatta, o'z ehtiyojmandini topadi, azalda buyuk ishlarga sababchi bo'ladi...

Uldona ABDURAHMONOVA suhbatlashdi